



SAYLOVLARDA FAOLLIK VA SHAFFOFLIKNI TA`MINLASH

Barnoqulova Fotima Ixtiyor qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

1-bosqich talabasi Xalqaro huquq fakulteti.

barnoqulovafotima@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yurtimizda o`tkaziladigan barcha saylov tizimlaridagi faollik va shaffoflik muammosi va unga bir qancha yechimlarni yoritmoqchiman. Bir qancha muammo sifatida bazi hududlarda saylovchilarning qatnashish foizi pastligi, kuztuvchilar imkoniyati cheklanganligi, nomzodlar ortasida raqobatning sustligi, fuqarolar manfaati sezilmasligi, partiyalar ortasidagi farqlarning noaniqligi kabilarni keltirish mumkin. Bularga yechim sifatida saylov organlarida axborot-texnologiyalarni kengroq jalb qilish, saylovoldi tashviqotlarni yanada ko`proq olib borish, ozodlikdan mahrum qilish tuzilmalarida saqlanuvchi shaxslarga ham bu borada kengroq imkoniyat yaratib berish, xalqaro va chet el tajribalarini o`rganib amalyotda qo`llash kabilarni aytishimiz mumkin..

Kalit so`zlar: saylovchi, axborot texnologiyalari, saylovoldi tashviqotlar, faollik, shaffoflik, raqobat, fuqarolar manfaati, siyosiy partiyalar.

Abstract: This article examines the issues of voter participation and transparency within the electoral systems of our country and proposes several possible solutions. The key problems include low voter turnout in certain regions, limited opportunities for observers, weak competition among candidates, insufficient representation of citizens' interests, and the lack of clear distinctions between political parties. As potential solutions, the article suggests expanding the use of information and communication technologies in electoral administration, strengthening pre-election campaigning, providing broader opportunities for individuals held in penal institutions, and studying as well as applying international and foreign best practices.



Keywords: voter, information technologies, pre-election campaigning, participation, transparency, competition, citizens' interests, political parties

Аннотация:

В данной статье рассматриваются проблемы активности и прозрачности в избирательных системах нашей страны, а также предлагаются возможные пути их решения. Среди основных проблем можно выделить низкий уровень участия избирателей в некоторых регионах, ограниченные возможности наблюдателей, слабая конкуренция между кандидатами, недостаточное отражение интересов граждан и нечеткие различия между политическими партиями. В качестве решений предлагается более широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий в деятельность избирательных органов, усиление предвыборной агитации, расширение возможностей для лиц, содержащихся в учреждениях исполнения наказаний, а также изучение и применение международного и зарубежного опыта.

Ключевые слова: избиратель, информационные технологии, предвыборная агитация, активность, прозрачность, конкуренция, интересы граждан, политические партии

Saylovlar demokratik jamiyatning asosiy elementlaridan biri bo'lib, ularning ochiqligi va shaffofligi davlatning barqarorligi, fuqarolar ishtiroki va hokimiyatga bo'lgan ishonchni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ochiq va shaffof saylov jarayoni, avvalo, saylovchilar uchun adolatli va teng imkoniyatlarni yaratadi, bu esa demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biridir. Saylovlar davomida barcha jarayonlarning ochiqligi, saylovchilar va kuzatuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, saylov natijalarining to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Ochiqlik va shaffoflik nafaqat saylov jarayonida, balki saylovdan keyin ham davom etishi kerak. Saylov natijalarini e'lon qilish, ularni baholash va tanqidiy tahlil qilish jarayonlari hamda saylov qonunchiligidagi o'zgarishlar fuqarolarning siyosiy jarayonlarga bo'lgan ishtirokini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolar o'rtasida siyosiy



madaniyatni rivojlantiradi va davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Ochiqlik va shaffoflik saylov jarayonlarining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, demokratik boshqaruvni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Saylovlar davomida fuqarolar ishtirokini oshirish, ularning huquqlarini himoya qilish va saylov natijalariga bo'lgan ishonchni ta'minlash uchun zaruriy choralar ko'rish lozim. Biroq, amaliyotda bir qator dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular saylov jarayonlarining shaffofligini va adolatligini ta'sir qiladi.

Korrupsiya saylov jarayonlarida eng dolzarb muammolardan biridir. Misol uchun, ayrim mamlakatlarda saylov kampaniyalari davomida nomzodlar o'z raqiblarini yo'qotish uchun noqonuniy usullarga murojaat qiladilar. Bu, o'z navbatida, saylov natijalariga ta'sir ko'rsatadi va fuqarolar orasida saylov jarayoniga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Ovoz berish jarayoni ko'pincha murakkab va tushunarsiz bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim mamlakatlarda ovoz berish uchun kerakli hujjatlar yoki jarayonlar haqida ma'lumot yetarli emas. Bu esa fuqarolarni ovoz berishdan mahrum qiladi va ularning saylov jarayonlariga ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi.

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar saylov jarayonlarida axborot tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, dezinformatsiya va yolg'on ma'lumotlar tarqalishi saylov natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, 2016-yilgi AQSh prezident saylovlari paytida ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan noto'g'ri ma'lumotlar saylovchilarning fikrini o'zgartirishga olib keldi. Saylov jarayonlarini kuzatish uchun mustaqil kuzatuvchilar muhim ahamiyatga ega. Biroq, ayrim mamlakatlarda bu kuzatuvchilarni jalb qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularning yetishmasligi esa saylov jarayonining shaffofligini pasaytiradi va natijalarga nisbatan shubhalarni keltirib chiqaradi.

Saylov jarayonlarida gender va etnik tengsizlik ham dolzarb muammo hisoblanadi. Masalan, ba'zi mamlakatlarda ayollar va etnik ozchiliklar vakillari saylovlarda yetarlicha vakillik qilmaydilar. Bu esa ularning huquqlarini cheklaydi va demokratik jarayonlarga ishonchni kamaytiradi. Ochiqlik va shaffoflik saylov



jarayonlarini yanada ishonchli va adolatli qiladi, bu esa xalqning davlatga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Shuningdek, yuqoridagi muammolarni hal qilish orqali demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va mamlakatda barqarorlik hamda rivojlanishga erishish imkoniyatlarini oshirish mumkin.

Ochiq va shaffof saylov jarayonlari, shuningdek, korrupsiyani kamaytirish va siyosiy raqobatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Saylovchilar o'z ovozlari qanday qilib berayotganini bilishlari, saylov jarayonining har bir bosqichida kuzatuvchilar ishtirok etishi esa, saylovlarning adolatli o'tishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ochiqlik va shaffoflik saylov jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlashga va ularni hal qilishga yordam beradi.

Shunday qilib, saylovlarda ochiqlik va shaffoflik nafaqat saylov jarayonining muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash, balki demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz saylovlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning ahamiyati, uning amaliy usullari va bu jarayonni yaxshilash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rib chiqamiz.

Saylovlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashni isloh qilishda eng samarali vositalar- mustaqil saylov organini yanada kuchaytirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, OAV erkin faoliyat yuritishi, saylovchilar ro'yxati hammaga ochiq bo'lish va kuzatuvchilar uchun erkin sharoit yaratishdir. Bu borada, xalqaro xorijiy tajribalarini amaliy foydalanish samarali natija beradi. Masalan, AQSH saylov jarayoni ustidan ikki partiyali kuzatuv tizimi o'rnatilgan: ya'ni respublikchilar va demokratik vakillari barcha bosqichda – ro'yxat tuzishdan tortib, ovozlarni hisoblashgacha qatnashadi. Bundan tashqari, saylov natijalari ustidan sudlar nazorati mavjud bo'lib, e'tirozlar mustaqil sud organlari ko'rib chiqiladi. Janubiy Koreyada esa raqamli texnologiyalar, onlayn kuzatuv tizimlari va mobil ilovalar saylovchilar uchun qulaylik yaratib, shaffoflikni oshiradi. O'zbekistonda ham ushbu ilg'or tajribalarni uyg'unlashtirgan holda saylov tizimini modernizatsiya qilinsa, xalqning ishonchini mustahkamlash, saylovlarda adolat va shaffoflikni ta'minlash imkoniyati yanada kengayadi.



Saylovlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashni isloh qilishda eng samarali vositalar- mustaqil saylov organini yanada kuchaytirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, OAV erkin faoliyat yuritishi, saylovchilar ro'yxati hammaga ochiq bo'lish va kuzatuvchilar uchun erkin sharoit yaratishdir. Bu borada, xalqaro xorijiy tajribalarini amaliy foydalanish samarali natija beradi. Masalan, AQSH saylov jarayoni ustidan ikki partiyali kuzatuv tizimi o'rnatilgan: ya'ni respublikchilar va demokratik vakillari barcha bosqichda – ro'yxat tuzishdan tortib, ovozlarni hisoblashgacha qatnashadi. Bundan tashqari, saylov natijalari ustidan sudlar nazorati mavjud bo'lib, e'tirozlar mustaqil sud organlari ko'rib chiqiladi. Janubiy Koreyada esa raqamli texnologiyalar, onlayn kuzatuv tizimlari va mobil ilovalar saylovchilar uchun qulaylik yaratib, shaffoflikni oshiradi. O'zbekistonda ham ushbu ilg'or tajribalarni uyg'unlashtirgan holda saylov tizimini modernizatsiya qilinsa, xalqning ishonchini mustahkamlash, saylovlarda adolat va shaffoflikni ta'minlash imkoniyati yanada kengayadi.


Men universitet yoshlari o'rtasida saylovlarda Ochiqlik va shaffoflikni taminlash to'g'risida so'rovnoma o'tqazdim. Ushbu so'rovnomada asosan 18-25 yosh toifasidagilar qatnashdi. Ushbu so'rovnoma shuni ko'rsatadiki, fuqarolar o'rtasida saylovlarning shaffofligiga ishonch darajasi past. Ular saylov jarayonlariga oid qonunbuzarliklar ko'p deb hisoblashadi. Bundan tashqari ular saylovchilar huquq va majburiyatlari haqida yetarlicha xabardor emaslar. Ushbu holatlarga yechim sifatida saylov jarayonlarida OAV ni yanada kengroq jalb qilish va kuzatuvchilarning ishtirokini ta'minlash, saylovoldi tashviqotlarini ayniqsa chekka hududlarda kengroq olib borish, saylovoldi partiya vakillari haqida ma'lumotlarni ommaga chuqurroq yoritish, partiyalar o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirishni ko'rsatish mumkin. Farovon yurtimizda adolatli boshqaruvni amalga oshirishda saylovlarning o'rni katta. Bu borada aholining roli muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxs davlat hokimiyatini shakllantirishda faol ishtirok etish lozim. Bu borada Markaziy saylov komissiyasi va boshqa saylov organlarining faoliyatiga katta e'tibor qaratish lozim. Ularning ochiq va shaffof faoliyati aholi ishonchining garovi hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi saylovlarda faollik va shaffoflikni ta'minlash masalasiga bo'lgan munosabatni o'rganish edi. Undan tashqari ularda bu borada qanchalik tushuncha borligini va hozirgi huquqiy tizimning amalda ishlash darajasini baholashdan va uni yaxshilab o'rganishdan iborat edi. Tadqiqot ko'proq odamlar ya'ni aholi fikrini bilish va ularning hayotiy tayanishga harakat qildi. Tadqiqotda miqdoriy usul, ya'ni so'rovna usuli qo'llaniladi. So'rovnoma onlayn shaklda qilindi. Unda jami 32 nafar respondent qatnashdi.

So'rovnomada qatnashganlarning Yoshi 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'ldi. Bu yoshdagi odamlar jamiyatda faol, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan va talaba yoki yosh o'qituvchilardir. Shuning uchun ularning fikri saylovlarda faollik va ochiqlik masalasini real hayotda qanday tushunishlarini kursatib berdi.

So'rovnomada ko'p yo'nalishlar o'rganildi. Ulardan respondentlarning saylov bo'yicha umumiy tushunchasini, saylovoldi jarayonlarda qonunbuzarlik holatiga duch kelganligi yoki yo'ligi, saylov natijalarida ularda shubha tug'dirishi yoki yo'q, saylov komissiyalari faoliyati haqida yetarlicha ma'lumot taqdim qilinishi yoki yo'qligi kabi masalalarini chuqur o'rgandi.


2. Saylovoldi jarayonlarida qonunbuzarlik holatlari uchraydi deb o'ylaysizmi?



Olingan natijalarning barchasi foizlarda hisoblandi va ularning huquqiy ahamiyati bo'yicha tahlil qilindi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning **yarim qismi (50%)** saylovoldi jarayonlarida qonunbuzarlik holatlari uchramaydi, deb hisoblaydi. Bu esa jamiyatning muayyan qismi saylovlar shaffof va nazorat ostida o'tishini his qilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, **33,3% ishtirokchi**

qonunbuzarliklar mavjudligini ta'kidlagan. Bu guruhda shubhalar saqlanib qolayotgani, saylov jarayonining barcha bosqichlarida ochiqlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Yana **16,7% respondent** "ba'zan uchraydi" deb javob bergan bo'lib, ularning fikri saylovlarda qonunbuzarliklar to'liq tizimli emas, ammo ayrim holatlarda kuzatilishi mumkinligini bildiradi. Umuman olganda, javoblar saylov jarayoniga ishonch mavjud bo'lsa-da, aholining muayyan qismi yanada oshkorlik, nazorat va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish zaruratini sezayotganini ko'rsatadi.


6. Saylovlovchilarini ro'yxatini shakllantirishda adolat mavjud deb



o'ylaysizmi?

Ushbu so'rov natijalarida **57,1%** ishtirokchi "ha" deb javob bergan. Bu guruh saylovchilar ro'yxati tuzilishi jarayonida jiddiy muammolar yo'qligini, amaldagi tartiblar ularga ishonch uyg'otishini ko'rsatadi. **42,9%** respondent esa "yo'q" degan javobni tanlagan. Bu ulush ro'yxatlarni shakllantirishda ayrim nomuvofiqliklar yoki texnik kamchiliklar uchrashi mumkinligi haqidagi xavotirlar mavjudligini bildiradi. Ular, asosan, ro'yxatlardagi xatoliklar yoki ma'lumotlarning to'liqligi bilan bog'liq masalalarni nazarda tutishi ehtimol. Natijalar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda bu jarayonni to'g'ri deb biluvchilar ko'pchilikni tashkil qilganda, sezilarli qism hali ham adolatga oid savollarni o'rta qo'yimoqda.

9 Saylovchilarning huquq va majburiyatlari to'g'risida yetarlicha ma'lumot beriladimi?



Javob beruvchilarning katta qismi (71,4%) saylovchilarga yetarlicha ma'lumot beriladi, deb hisoblaydi. Bu esa ko'pchilikning axborot yetkazilish darajasidan qoniqayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 14,3% "yo'q" deb javob berganlar ham bor — bu guruh saylovchilar hali ham ayrim ma'lumotlarni to'liq olmasligini yoki tushuntirish ishlari yetarli emasligini bildiradi. Yana 14,3% "ba'zan" deganlar mavjud bo'lib, ular uchun ma'lumotning uzluksizligi yoki sifati barqaror emas, vaziyatga qarab o'zgarib turadi. **Saylovchilarni xabardor qilish bo'yicha ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan, lekin baribir ma'lumot yetishmovchiligi bor deb o'ylaydiganlar ham kam emas**, shuning uchun bu borada tushuntirish va targ'ibot ishlari yanada mukammallashtirilishi mumkin.

Ushbu so'rovnoma shuni ko'rsatadiki, fuqarolar o'rtasida saylovlarning shaffofligiga ishonch darajasi past. Ular saylov jarayonlariga oid qonunbuzarliklar ko'p deb hisoblashadi. Bundan tashqari ular saylovchilar huquq va majburiyatlari haqida yetarlicha xabardor emaslar. Ushbu holatlarga yechim sifatida saylov jarayonlarida OAV ni yanada kengroq jalb qilish va kuzatuvchilarning ishtirokini ta'minlash, saylovoldi tashviqotlarini ayniqsa chekka hududlarda kengroq olib borish, saylovoldi partiya vakillari haqida ma'lumotlarni ommaga chuqurroq yoritish, partiyalar o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirishni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi jamiyat hayotida juda muhim o'rin tutadi. U demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ajralmas asoslaridan biri sifatida qaraladi. Saylovarning saylash va saylanish huquqini amalga oshirish mexanizmini belgilaydi. Har bir fuqaro teng huquq asosida ovoz berish imkoniyatiga



ega bo'ladI. Shu orqali xalq davlat boshqaruvida ishtirok etadi. Saylovlar jamiyatda demokratiyaning eng muhim ko'rinishidir. Saylov jarayonlari qonuniy va tartibli o'tishi jamiyatda demokratiyaga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Fuqarolar saylovlarda ishtirok etish orqali jamiyatdagi muhim qarorlar qabul qilinishiga bevosita ta'sir qiladi. Saylovlar orqali saylangan deputatlar, Prezident yoki mahalliy kengash a'zolari xalq ishonchini oladi. Adolatli va shaffof saylov tizimi aholining davlat institutlariga nisbatan ishonchini kuchaytiradi. Ochiq va adolatli saylovlar O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshiradi va mamlakatni demokratik davlat sifatida namoyon qiladi. Saylovlarda ochiqlik va shaffoflik- demokratik davlatning asosiy mezonidir. Nazariy adabiyotlarda bu tushunchalar fuqorolarning ishonchini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Saylov-xalqning hokimiyat bilan shartnomasi bu shartnomani buzmaslik uchun ochiqlik va shaffoflik zarur O'zbekiston olimlari izlanishlarida saylovlarda ochiqlikni ta'minlashning asosiy mexanizmlari sifatida OAV orqali jarayonni yoritish milliy va xalqaro kuzatuvchilar ishtiroki, saylov jarayonida fuqarolarning erkinligi ko'rsatiladi. Rossiya huquqshunoslari asarlarida shaffoflik masalasi ko'proq kuzatuvchilar huquqi va saylov komissiyalar mustaqiligi bilan bog'liq tarzda muhokama qilinadi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, kuzatuvchilarning faoliyati, saylovchilarning ro'yxatlari ochiqligi, ovozlarni sanash jarayonida ishtirok etish imkoniyati va OAV ning erkinligi kuchli taminlasa jamiyatning saylov jarayoniga bo'lgan ishonchi shunchalik ortadi. O'zbekiston saylovlarida son'ngi yillarda xalqaro kuzatuvchilar soni ko'paygani amaliyotda ochiqlikni ta'minlashga xizmat qilgano qayt etilgan. Saylovlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashni isloh qilishda eng samarali vositalar- mustaqil saylov organini yanada kuchaytirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, OAV erkin faoliyat yuritishi,, saylovchilar ro'yxati hammaga ochiq bo'lish va kuzatuvchilar uchun erkin sharoit yaratishdir. Bu borada, xalqaro xorijiy tajribalarini amaliy foydalanish samarali natija beradi. Masalan, AQSH saylov jarayoni ustidan ikki partiyali kuzatuv tizimi o'rnatilgan: ya'ni respublikchilar va demokratik vakillari barcha bosqichda – ro'yxat tuzishdan tortib, ovozlarni hisoblashgacha qatnashadi. Bundan tashqari, saylov



natijalari ustidan sudlar nazorati mavjud bo'lib , e'tirozlar mustaqil sud organlari ko'rib chiqiladi. Janubiy Koreyada esa raqamli texnologiyalar , onlayn kuzatuv tizimlari va mobil ilovalar saylovchilar uchun qulaylik yaratib, shaffoflikni oshiradi. O'zbekistonda ham ushbu ilg'or tajribalarni uyg'unlashtirgan holda saylov tizimini modernizatsiya qilinsa, xalqning ishonchini mustahkamlash, saylovlarda adolat va shaffoflikni ta'minlash imkoniyati yanada kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi jamiyat hayotida juda muhim o'rin tutadi. U demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ajralmas asoslaridan biri sifatida qaraladi. Saylovarning saylash va saylanish huquqini amalga oshirish mexanizmini belgilaydi. Har bir fuqaro teng huquq asosida ovoz berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu orqali xalq davlat boshqaruvida ishtirok etadi. Saylovlar jamiyatda demokratiyaning eng muhim ko'rinishidir. Saylov kodeksi orqali ochiqlik, shaffoflik va adolat kafolatlanadi. Saylov jarayonlari qonuniy va tartibli o'tishi jamiyatda demokratiyaga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Fuqarolar saylovlarda ishtirok etish orqali jamiyatdagi muhim qarorlar qabul qilinishiga bevosita ta'sir qiladi. Saylov kodeksi fuqarolarning siyosiy madaniyatini rivojlantiradi, ularni faollikka undaydi. Saylovlar orqali saylangan deputatlar, Prezident yoki mahalliy kengash a'zolari xalq ishonchini oladi. Saylov kodeksi ushbu jarayonni qonuniy asosda tashkil etib, hokimiyatning xalq tomonidan tan olinishini kafolatlaydi. Adolatli va shaffof saylov tizimi aholining davlat institutlariga nisbatan ishonchini kuchaytiradi. Saylov kodeksiga amal qilinishi jamiyatda siyosiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Saylov kodeksi xalqaro demokratik tamoyillarga mos holda ishlab chiqilgan. Ochiq va adolatli saylovlar O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshiradi va mamlakatni demokratik davlat sifatida namoyon qiladi. Saylov kodeksi jamiyatda demokratiya, siyosiy faollik, barqarorlik va qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. U fuqarolarning ovozi va ishtiroki orqali davlat boshqaruvi xalq manfaatlariga xizmat qilishini kafolatlaydi.

“Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” qonuni.



“O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun (saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish munosabati bilan) – bu so‘nggi yillarda amalga oshirilgan saylov qonunchiligini isloh qilish jarayonining muhim bosqichidir. Qonun saylov jarayonlarini yanada ochiq va shaffof qilishga qaratilgan. Fuqarolarning saylov huquqlarini amalda to‘liq amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Saylov tizimiga xalqaro standartlarga yaqin demokratik normalar kiritildi. Avval turli qonunlarda tarqoq holda mavjud bo‘lgan qoidalar yagona Saylov kodeksi asosida birlashtirildi. Qonunga kiritilgan o‘zgartishlar huquqiy aniqlikni ta‘minlab, ortiqcha chalkashliklarni bartaraf etadi. Qonun fuqarolarga, jumladan yoshlar va xotin-qizlarga saylovlarda faol ishtirok etish uchun huquqiy asos yaratadi. Saylov jarayonida fuqarolarning bevosita ishtiroki (kuzatuvchi, vakil, ovoz beruvchi sifatida) kuchaytirilgan. Qonun adolatli saylov o‘tkazishni kafolatlab, saylangan vakillar va rahbarlarning xalq ishonchi bilan saylanganini ta‘minlaydi. Bu esa hokimiyat organlari va jamiyat o‘rtasida ishonchni mustahkamlaydi. O‘zgartirish va qo‘shimchalar O‘zbekiston saylov tizimini xalqaro demokratik tamoyillarga moslashtirdi. Bu mamlakatning xalqaro nufuzini oshirib, demokratik davlat sifatida tan olinishiga xizmat qiladi. Adolatli saylovlar orqali ijtimoiy-siyosiy hayotda barqarorlik va ishonch kuchayadi. Qonun fuqarolarning davlat siyosatiga bevosita ta‘sirini kuchaytirgani uchun jamiyatning siyosiy tizimga bo‘lgan munosabati ijobiylashadi. Ushbu qonun jamiyatda demokratiya, siyosiy faollik, huquqiy barqarorlik va xalq ishonchini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. U fuqarolarning ovozi davlat qarorlarida bevosita aks etishini ta‘minlab, jamiyatda adolat va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ochiqlik va shaffoflik saylov jarayonlarining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, fuqarolar ishtirokini va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada saylov jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun normativ asoslar va empirik natijalarni keltirib o‘tamiz. BMT, Yevropa Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar saylov jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashga qaratilgan



qoidalar va standartlarni ishlab chiqqan. Masalan, BMTning "Saylovlar to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi" saylov jarayonlarining adolatli va shaffof o'tishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonning "Saylov to'g'risida"gi qonuni va boshqa normativ hujjatlar saylov jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan. Bu qonunlar saylovchilar ro'yxatini yuritish, ovoz berish jarayoni va saylov natijalarini e'lon qilish tartiblarini belgilaydi. Fuqarolar o'z saylov huquqlaridan to'liq foydalanishlari uchun shaffof va adolatli saylov jarayonlari zarur. Bu, o'z navbatida, fuqarolarning demokratik jarayonlarga ishtirokini oshiradi.

Mustaqil kuzatuvchilar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, saylovlarda kuzatuvchilarning mavjudligi saylov natijalariga bo'lgan ishonchni 30% ga oshirishi mumkin. Bu, shuningdek, saylov jarayonida noqonuniy amaliyotlarning kamayishiga olib keladi. Raqamli ovoz berish tizimlari joriy etilgan mamlakatlarda (masalan, Estoniya) saylovchilarning ishtiroki 10-15% ga oshgan. Bu raqamlar raqamli texnologiyalar yordamida saylov jarayonining soddalashtirilishi va fuqarolar uchun qulaylik yaratishi bilan bog'liq. Saylovlardan oldin o'tkazilgan ochiq muhokamalar va axborot kampaniyalari orqali fuqarolar orasida saylovlarga bo'lgan qiziqish 20% ga oshganligi qayd etilgan. Bu, fuqarolarning saylov jarayonlariga bo'lgan ishtirokini kuchaytiradi.

Ochiqlik va shaffoflik saylov jarayonlarining muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash uchun zarurdir. Normativ asoslar va empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, saylov qonunchiligini takomillashtirish, mustaqil kuzatuvchilarni jalb qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va jamoatchilik bilan samarali muloqotni kuchaytirish orqali demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirish mumkin. Ushbu tavsiyalar amalga oshirilganda, fuqarolar orasida ishonch ortadi va demokratik qadriyatlar mustahkamlanadi. Natijada, barqarorlik va rivojlanishga erishish imkoniyatlari oshadi. Ochiqlik va shaffoflik saylov jarayonlarining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, demokratik boshqaruvni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Saylovlar davomida fuqarolar ishtirokini oshirish, ularning huquqlarini himoya qilish va saylov natijalariga bo'lgan ishonchni ta'minlash uchun zaruriy choralar ko'rish



lozim. Empirik tadqiqotlar esa, mustaqil kuzatuvchilar ishtiroki, raqamli texnologiyalar va jamoatchilik bilan samarali muloqot orqali saylov jarayonlarining sifatini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Ochiqlik va shaffoflik saylov jarayonlarini yanada ishonchli va adolatli qiladi, bu esa xalqning davlatga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Husanova, M.** (2025, March 27). Saylovlar jarayonida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash – muhim mezon. <https://www.saylov.uz>
2. **Yunusov, B.** (2025, September 16). Zamonaviy axborot texnologiyalar: mamlakatimizda fuqarolar o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan keng foydalanishi uchun yangi qulayliklar yaratmoqda. <https://www.saylov.uz>
3. **Mamatov X.** (2025, July 28). Yangilangan saylov qonunchiligi va amaliyoti: tajriba va taraqqiyot. <https://www.saylov.uz>
4. **Inoqova, O.S.**, 2023. Saylov tizimini tashkil etish: O'zbekistonning saylov huquqidagi muhim tendensiyalari. Modern Science and Research.
5. **Karimov, B. (2022).** *O'zbekiston saylov tizimi va demokratik islohotlar tajribasi.* Toshkent: Adolat nashriyoti.
— Saylov tizimidagi o'zgarishlar, ochiqlik va jamoatchilik nazorati bo'yicha amaliy tahlillar mavjud.
6. **To'xtayev, R. (2021).** *Saylov huquqi asoslari va xalqaro standartlar.* Toshkent: Universitet nashriyoti.
— Saylov jarayonlarida adolat va shaffoflik tamoyillari keng yoritilgan.
7. **O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. (2023).** *O'zbekiston saylovlarida ochiqlik va oshkoralik tamoyillari: tahliliy sharh.* Toshkent.
— Rasmiy statistikalari va kuzatuvchi institutlari bo'yicha ma'lumotlar.
8. **Qodirov, M. (2022).** *Demokratiya va saylov jarayoni: nazariya va amaliyot.* Toshkent: IIV Akademiya nashriyoti.



— Saylovlardagi jamoatchilik ishtiroki va nazorat mexanizmlari haqida ilmiy yondashuvlar berilgan.

9. Axmedova, S. (2024). *Fuqarolik jamiyati va saylov madaniyati*. Toshkent: Fan va texnologiya.

— Fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish usullari tahlil qilingan.

10. “O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi” (2021, 2023-yillarda tahrirlar bilan).

— Amaldagi saylov tartib-taomillari, kuzatuvchilar huquqlari va shaffoflik garovlari bayon etilgan.

11. OSCE/ODIHR (2019). *Handbook for the Observation of Election Operations*. Warsaw: OSCE.

— Xalqaro kuzatuv standartlari, shaffoflik mezonlari va saylov jarayonini baholash metodikasi yoritilgan.

12. Norris, P. (2015). *Why Elections Fail*. Cambridge University Press.

— Saylovlarda ishonch, shaffoflik muammolari, xalqaro amaliyot va muqobil yechimlar haqida keng qamrovli ilmiy tahlil.

13. O‘zbekiston Respublikasining Saylov Kodeksi.(2019, June 25).<https://lex.uz/docs/4386848>

14. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.(2019, September 9). Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida.<https://lex.uz/docs/4497111>.